Hosilbo`lgan modda estrix–gips deyiladi, unitarkibida CaSO_4 dantashqarikalsiy oksid ham hosilbo`ladi. Ujudayuqorimustaxkamlikka egabo`ladiva 19 Mpadanko`pbo`lishim mumkin.

Qotishi. Gidratlanish (qotish)–

bugips bog`lovchimod dalarningsuv bilan birikish jarayonidir. Bunday arim molekulasuvligips qaytadankristall holatdagi ikkisuvligips ga ay lanadi:



Natijada hosilbo`lgan ikkisuvligipsnikristallario`zarobir-biribilanchirmashib ketadi, shuni hisobiga uning zichligi ortib boradi.

Akademik A.A. Baykovning nazariyasibo`yicha, gipsning qotishida asosan quyidagi fizik-kimyoviy jarayonlar ruy beradi.

Qotish jarayoni uch davrdan iboratdir: kalsiy sulfat nierishi, yangi kristallarni hosilbo`lishi, kristallarni yiriklanishi.

Gips zarrachalarig eldebataluvchi yelimsimon holatga ay lanadi. Natijada kolloid holatdagi judamaydazarrachalardan tashkil topgan gips xamiri hosilbo`ladiv ate zsurhatd akristallanaboshlaydi.

Ikkisuvligips zarrachalaridano`sayotgan ignasimon kristallaro`zaro zichlashadiv amustaxkam tutashgan kristallga ay lanadi.

Kolloid ritma hosilbo`lishiva uning kristallanish jarayoni arim molekulasuvligipsnin gik kimolekulasuvligips gato`laaylanishiga qadardavometadi.

Gips bog`lovchimod dani ishlatilishi unikristallanish tezligiga judakattabog`liq. Gips bog`lovchimod dani suv birikishi–buekzotermik (issiqlik ajralib chiqish) jarayonidir.

Gips bog`lovchimod dani suv bilan aralashtirilganda (gips suvga aralashtirish davomida sepiladi) oquv chansuyuqxamir hosilbo`ladi, utezquyuqlashaboshlaydi,

lekin haliplasticholatdabo`ladibugipsni quyuuqlanishini boshlanganligini bildiradi; qotishini boshlanishi–

bugips bilan suvni aralashtirgan vaqtdan boshlab Vikaasbobining halqaidimmyet

Xossalari.Gips bog`lovchi moddalarning mustaxkamligi-tug`ridan-tug`ri unga qo`shiladigan suv miqdoriga bog`likdir. Normal quyruqlidagi gips xamirini olish uchun β - ko`rinishdagi gips 50-70%, α -ko`rinishdagi gips 30-45% suv talab qiladi. Nazariy jixatdan esa gipsga 18,6% suv yetarli hisoblanadi. Bog`lanmagan suv miqdorining ko`pligi uchun gips toshida g`ovaklik-30-60% ni tashkil etadi.

Siqilishga bo`lgan mustaxkamlik chegarasiga qarab standart bo`yicha gips bog`lovchi moddalarning quyidagi markalari mavjud (2-jadval):

Gips bog`lovchisining siqilishga bo`lgan mustaxkamligi

2-jadval

| Gips bog`lovchi moddalar markalari | O`lchamlari 40x40x160 mm bo`lgan gips tayoqchanning 2 soat dan keyingi mustaxkamlik chegarasi | | | |
|------------------------------------|---|--------------------|-----------|--------------------|
| | Siqilishga | | Egilishga | |
| | MPa | Kg/sm ² | MPa | Kg/sm ² |
| G-2 | 2 | 20 | 1,2 | 12 |
| G-3 | 3 | 30 | 1,8 | 18 |
| G-4 | 4 | 40 | 2 | 20 |
| G-5 | 5 | 50 | 2,5 | 25 |
| G-6 | 6 | 60 | 3 | 30 |
| G-7 | 7 | 70 | 3,5 | 35 |
| G-10 | 10 | 100 | 4,5 | 45 |
| G-13 | 13 | 130 | 5,5 | 55 |
| G-16 | 16 | 160 | 6 | 60 |
| G-19 | 19 | 190 | 6,5 | 65 |
| G-22 | 22 | 220 | 7 | 70 |
| G-25 | 25 | 250 | 8 | 80 |

Gips bog`lovchining turlari

3-jadval

| Bog`lovchini qotishiga qarab turi | Qotish muddatlariga qarab indeksi | Qotish muddatlari, daqiqa | |
|-----------------------------------|-----------------------------------|---------------------------|---------------|
| | | Boshlanishi | Tugashi |
| Tez qotuvchi | A | 2 | 15 |
| Urtacha qotuvchi | B | 6 | 30 |
| Sekin qotuvchi | V | 20 | belgilanmagan |

Maydalik darajasiga qarab gips bog`lovchi moddalarning quyidagi turlari mavjud (4-jadval):

Gipsning maydalik darajasi

4-jadval

| Maydalikdarajasigaqarab bog`lovchimoddanituri | Maydalik darajasining indeksi | 02 elakda qolgan qoldiq, % |
|---|-------------------------------|----------------------------|
| Dag`al maydalangan | I | 23 |
| O`rtacha maydalangan | II | 14 |
| Nozik maydalangan | III | 2 |

Gips bog`lovchi moddani qotishini sekinlashtirish uchun qo`shiladigan suvga hayvon yelimi yoki LST (lignosulfattexnicheskiy) qo`shish mumkin (gipsni ogirligidan 0,1-0,3% miqdorida). Bu qo`shimcha moddalar gips zarrachalarining yuzasini qoplab oladi va ularni suvda erishini sekinlashtiradi, shuni hisobiga gipsni qotishini ham sekinlashtiradi.

α -ko`rinishidagi gips bog`lovchi moddalarni qotishini tezlashtirish uchun osh tuzi, natriy sulfat va hakoza qo`shish mumkin (gipsni ogirligidan 0,2-3% miqdorida).

Ishlatilishi:

Gips bog`lovchi moddalar parda devorlar, qurilishda juda ko`p ishlatiladigan girs plitalari (gips va yog`och qipigidan ishlangan),»quruq suvoq» deb ataladigan taxtalar (ikki qog`oz orasiga quyilgan gips taxta), devorbop bloklar, toki-ravok buyumlari ishlashda katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari gips bog`lovchi moddalar bino devorlarining ichki tomonini suvashda, naqqoshlikda va bezak buyumlar tayyorlashda ko`p ishlatiladi.

Gips o`nga chidamli bo`lganligi uchun, bundan binoni shamollatuvchi kurilmalar, lift kataklari va boshkalar tayyorlanadi.

II bob. GIPSSOBG`LOVCHIMODDALAR VA ULARNING TAVSIFI

HAMDA ISHLATILISHI

2.1. GIPSSOBG`LOVCHIMODDALAR

Supergips – gipstoshinito`yinganbug`muhitida, yuqoribosimsharoitida, ungaqo`shimcha – modifikator-ftalliyokimaleinangidritqo`shibissiqlikbilanishlovberibolinadi.

Supergipsolishjarayonida o`zigaxosligishundaki, harqandaykristalltuzilishga egabo`lganmaydagipstoshlari ishlatiladi.

Fosfogipsasosida olingan bog`lovchimodda.

Fosfogips suvaralashmasi gipstosh kristall hosil qilishini boshqarib turadigan karboksilmetilsellyulozaqo`shibavtoklavda ishlov beribolinadi.

Gipssementputstsolanlibog`lovchimoddalar (GTSPB).

Yarim molekulasuvligipsni (50-75%), portlandsementni (15-25%), putstsolanqo`shimchanio`zaro aralash tiribolinadi. Uning markalari 100, 150 bo`ladi.

Angidritsement.

Tabiiy gipstoshini yoki angidritni (CaSO_4) 600-700°C dapi shirib, so`ng tuyib, havoda qotadigan bog`lovchimodda – angidritsementi olinadi.

Sement aktivligini oshirish maqsadida ungakatalizator sifatidagi qo`shimchalarda nohak (2-5%), pishirilgan dolomit, domnashlagi (10-15%) vayonuvchan slaneskuliqo`shiladi.

Angidritsement sekin quyulanuvchan bog`lovchidir.

Quyulanishining boshlanishi 30 daqiqadan kam bolmaydi, oxiries a 24 soatgacha, suvgachidamliligigips ganisbat anyuqori.

Siqilishigabo`lgan mustaxkamligibo`yicha G-2 dan G-10 gacha markalargabo`linadi.

Zichligi 2,8-2,9 g/sm³, o`rtacha og`irligi 850-1100 kg/m³ ga teng.

Angidritsement yaxlit pollvarqurishda, g`isht terish va suvoqchilik qorishmalari olishda va sun`iy marmar olishda ishlatiladi.

Angidritli bog`lovchi moddalar.

Tabiiy angidritni (yoki tarkibida angidrati bor ishlab chiqarishi chiqindisini) qotirishga yordam beruvchi kristallsimon aktivizatorlarni birga qo`shib mayda qilib tuyish yo`li bilan olinadi. Aktivizatorlarga Ohak, pishirilgan dolomit, domna shlagi, hamda ba`zi bir sulfat tuzlari va natriy bisulfat kiradi.

Yuqori haroratda pishirib olinadigan gips. (ekstrixgips)-ikki molekula suvli gipsni 900-1000°C haroratda pishirib, so`ng tuyishdan hosil bo`lgan mahsulotdir. Markalari: 100, 150, 200.

Yaxlit pollar qurishda, gisht terish va suvoqchilik qorishmalari, sun`iy marmar olishda ishlatiladi.

Gips bog`lovchi asosida olingan buyumlar

4-rasm



Ishlatilishiga qarab gips bog`lovchi asosida olingan buyumlar devorbop plita va taxtalarga, devorlarni qoplash uchun yupqa taxtalar, qavatlararo plita va tom

yopish uchun plita, issiqdan, tovushdan himoya qiluvchi buyumlar, bezak buyumlari, quyma pollar va boshqa turlarga bo`linadi.

Devorbop gips bloklari 390x190x188; 390x90x188 mm o`lchamlarda ishlab chiqariladi. Markasi 25, 35, 50, 75.

Xonalarni ajratadigan gips plitkalari:

900x300x100; 800x400x100; 600x300x100 mm o`lchamlarda, tarkibiga mineral yoki organik kukun to`ldirgichlar ko`shib yoki qo`shmasdan ishlab chiqariladi.

Gips betonli yopma buyumlar qalinligi 60, 80 va 100 mm, uzunligi 600 mm dan uzun bo`lmagan va eni 4000 mm dan uzun bo`lmagan o`lchamlarda ishlab chiqariladi. Bunda gips bog`lovchi moddalar yoki gipssementputstsolanli bog`lovchi moddalar ishlatiladi. Katta o`lchamdagi gipsobetonli yopma buyumlar tarkibida gips, qum va qipigi bo`lgan 1:1:7 nisbatdagi aralashmadan tayyorlanadi.

Sanitar-texnik xonalar tayyor hajmli buyum sifatida yoki ayrim bo`laklardan iborat bo`lgan buyumlardan tayyorlanadi. Siqilishga bo`lgan mustahkamligi 3Mp dan kichikbo`lmagan gipssementputstsolan bog`lovchi modda asosida olinadi.

Gips tolali qatlamlar (GTK)

Markasi G-4...G-7 bo`lgan gips bog`lovchi modda, qog`oz chiqindisi va suv aralashmasidan tayyorlanadi. Uning o`lchamlari, mm: uzunligi 2500-3600; eni 1200; qalinligi 10,12,14,16,19 bo`ladi.

Egilishga bo`lgan mustaxkamlik chegarasi 4,6-5,3 Mpa dan kam bo`lmasligi kerak.

Gips kartonli qatlam gips bog`lovchi modda, shisha tola va qo`shimcha asosida tayyorlanadi.

Gips bezak plitalari yuzasida naqshi bo`lgan elastik qoliplarga bir me`yorda uzluksiz ravishda gips xamirini quyish usuli bilan olinadi. Gips bog`lovchi moddaning markasi G-2...G-7 bo`ladi.

Tovush yutuvchi gipsli plitalar markasi G-5 dan kichik bo`lmagan gips bog`lovchi asosida ko`p qatlamli g`ilofni qoliplash va keyin ular orasiga tovush yutuvchi moddalar joylashtirib olinadi.

Quruq gips aralashmasi polni ostidan yotqiziladigan o`zi tekislanadigan qatlamlar hosil qilish uchun tayyorlanadi. Ular-ko`rinishidagi gips bog`lovchiga qo`shimcha (sement, shlak, qo`shib olinadi).

Magnezial bog`lovchilar.

Cho`kindi tog` jinslari magnezit (bog`lovchi modda-kaustik magnezit) va dolomit (bog`lovchi modda-kaustik dolomit) ni shaxtali yoki aylanma xumdonlarda 700-900°C haroratda pishirib magnezial bog`lovchilar olinadi.

Kaustik magnezit $MgCO_3$ ni pishirish jarayonida undan karbonat angidrit gazi (CO_2) ajralib chiqadi, qolgan magniy oksidi MgO esa bog`lovchi xususiyatga ega.

5-rasm




Kaustik dolomit ham asosan magniy oksididan iborat bo`ladi, u olingan modda bog`lovchi xususiyatga ega.

Bog`lovchi moddaning kimyoviy tarkibi, og`irligiga nisbatan % hisobida:
CaO=2,4; MgO=86,2; SiO₂=1,5; Fe₂O₃=1,5.

Fizik-mexanik xossalari: o`rtacha to`qma zichligi-0,7 kg/l; qotishini boshlanishi-40 daqiqadan so`ng; qotishini tugashi-8 soatdan so`ng. Siqilishga bo`lgan mustaxkamlik chegarasi 40...60 MPa-kaustik magnezit asosidagi bog`lovchi uchun va 10...30 MPa-kaustik dolomit asosidagi bog`lovchi uchun.

Qotishi: Kaustik magnezit ochiq havoda saqlansa, u tezda o`z aktivligini yo`qotadi.

Kaustik magnezit oddiy suvda qotmaydi. Uni xlorli magniy MgCl₂*6H₂O eritmasi bilan qorishtiriladi. Magnezialbog`lovchimoddaningqotishivamustaxkamligini oshirish boorish quyidagireaksiyako`rinishidaboradi:



Magniyxlorvakalsiyxloreritmalarimagniyoksidinierishxususiyatini oshiradivaq otishjarayoninikeskintezlashtiradi.

Ishlatilishi. Kaustikmagnezitvakaustikdolomiteyog`ochqirindisihamdakipig`I bilan mustaxkam bog`lanishxususiyatiga ega.

Shuninguchunksilolitvafibrolitkabimateriallarnitayyorlashda, asosanmagnezialbog`lovchilarishlatiladi.

Bundantashqariularmaxsussuvoqbopqorishmalar, me`mor qismlari, ko`pikbetonlartayyorlashdahamko`pishlatiladi.



O`zbekistondamagnesialbog`lovchimoddanixomashyomanbaiserobbo`lishiga qaramay, uniishlabchiqarishyo`lgaquyilmagan. Lekin, maxsusxossalarihihisobgaolsak, magnezialbog`lovchimoddalarkengko`lamdaishlatilishimumkinedi.

Eruvchanshisha

Olinishi. Eruvchanshisha–natriysilikatyokikalisyilikatdan K₂O*nSiO₂ tashkil topgan, havoda qotadigan bog`lovchi eruvchan shisha xumdonlarda soda

aralashgan toza kvarts qumini natriy sulfat yoki potash (K_2CO_3) bilan qorishtirib, $1200...1400^\circ C$ haroratda pishirib olinadi.

Yuqori haroratda erigan moddalar o'zaro quyidagicha reaksiyaga kirishadi:



Tezda sovutilgan shisha bo'tkasi ($Na_2O \cdot nSiO_2$ va $K_2O \cdot nSiO_2$) yorilib maydalanadi, so'ng "silikat bo'laklari" eritilgan holatda ishlatilishi sababli uni "suyuq shisha" deb ataladi.

Suyuq holatga keltirish uchun "silikat bo'laklarini" maydalab avtoklavga solinadi va bosimni 4-8 atm ga ko'tariladi. Natijada bog'lovchi modda kolloid silikat eritma hosil bo'ladi.

Eruvchanshishaning xususiyati uning modul bilan ifodalanadi. Shisha tarkibidagi

$$M = \frac{SiO_2}{Na_2O}$$

qum tuproq miqdorini undagi natriy oksidiga (yoki kaliy oksidiga)

bo'lgan nisbat modul deb ataladi.

Modulning miqdori kattabo'lsa,

shishaning erish xususiyati va chidamliligi kamayadi.

Eruvchanshisha uchun modulga: kattamodul shisha $M = 3,5-3,9$;

o'rtacha modul $M = 3,0-3,5$ vakichik modul $M = 2,0-2,8$.

O'zbekistonda eruvchanshisha ishlab chiqariladi, lekin juda hamozmiqdorda.

Hozirda uning bo'lgan talab juda kattadir.


Qurilishga keltiriladigan suyuq shisha aralashmasi tarkibida 50...70%

suv bo'ladi va zichligi $1,3...1,5 \text{ g/sm}^3$ ga teng.



Qotishi.

Eruvchanshishaning tarkibidagi asosiy moddanatriy silikat yoki kaliy silikat suvda parchalanadi. Shuni hisobga olib bo'lgan kremniy kislotasi ning bog'lovchi xususiyatiga ega bo'ladi.

Havodagi CO_2 ham qotirish xususiyatiga ega dir:



Haroratning oshishi va parchalanishini tezlashtirib kremniy kislotasini gelini hosil bo`lishini oshirish hisobiga eruvchan shishaning qotish jarayoni juda tezlashadi.



Ftorli natriy suvda kam eriydi, shuning uchun kremniy kislotasini gelini hosil bo`lishi tezlashadi va bog`lovchi juda tez qota boshlaydi.

Ishlatilishi.

Eruvchan shisha kislotaga chidamli qorishma va beton buyumlar tayyorlashda toshlarni suvdan va yemirilishdan saqlash uchun bo`yash maqsadida, betonning zichligini, o`nga chidamliligini oshirishda, silikat bo`yoqlar, zamaskalar ishlab chiqarishda keng ishlatiladi. Bizning respublikamizda eruvchan shishaning bog`lovchi modda sifatidagi ahamiyati juda ortib borayapti. U asosida pishirmasdan olingan g`isht va sun`iy to`ldirgichlar tayyorlash, sifatsiz shlaklar asosida olingan qorishma va beton uchun bog`lovchi modda sifatida ishlatish mumkin.

«Silikat bo`lak»ni ochiq havoda toza holatda saqlash mumkin. Erigan shisha chinni idishlarda, tunuka bochkalarda saqlanadi. Uni yozda issiqdan, qishda esa muzlashdan saqlash kerak.

2.2.SEMENTLAR VA ULARNING TURLARI

Kislotaga chidamli sement

Juda mayda qilib tuyilgan kislotaga chidamli to`ldirgichlar (kvars, diabaz, andezit va boshkalar) bilan qotirishini tezlashtiruvchi-kremniforli natriyni aralashmasidan tayyorlanadi. Uni qotirish uchun eruvchan shishaning suvdagi eritmasi ishlatiladi.

Kislotaga chidamli sement hamma kislotalarni ta`siriga chidamlidir (kremniyftorvodorodli va fosforli tashqari). Qotishini boshlanishi 20 daqiqadan so`ng, tugashi-8 soatdan so`ng.

Siqilishga boʻlgan mustaxkamlik chegarasi 30...40 Mpa va undan ortiq boʻladi.

Kislotaga chidamli sementlardan kislotaga chidamli zamaskalar, qorishma va betonlar olishda ishlatiladi.

Portlandsement

Portlandsement-bu klinkerni mayda qilib tuyib olingan mahsulotdir. Klinker xom ashyo aralashmasini (75% CaCO_3 -ohaktosh va 25% gil tuproq) pishgunicha qizdirib, tarkibida kalsiy silikat (70...80%), alyuminat va alyumoferrit fazalari (20...30%) hosil boʻlgandagi donador mahsulotdir. Maydalab tuyish vaqtida klinkerga 3...5% miqdorida gips qoʻshiladi.

Sementga suv qoʻshib aralashtirilgan vaqtda tarkibidagi gips suvda eriydi. Sementni suv bilan oʻzaro birikish jarayonida (gidratatsiya vaqtida) gips uch kalsiyli alyuminat bilan bogʻlanib $3\text{CaO} \cdot \text{Al}_2\text{O}_3 \cdot 3\text{CaSO}_4 \cdot 31\text{N}_2\text{O}$ gidrosulfoalyuminat kalsiy deb ataladigan yuqori sulfatli koʻrinishga ega boʻlgan, tabiiy etringitga oʻxshash mineralga aylanadi. Gidrosulfoalyuminatni hosil boʻlishi sementni qotishini 3-5 soatga sekinlashtirishga imkon beradi.

Xom ashyo. Portlandsement olish uchun tarkibida kalsiy karbonat va alyumosilikati koʻp boʻlgan xom ashyo ishlatiladi. Bularga ohaktosh yoki bur va giltuproq jinslari va tarkibida karbonat va alyumosilikati koʻp boʻlgan Ohakli mergellar kiradi.

Oʻzbekistondagi sement zavodlarida xom ashyo sifatida asosan Ohaktosh va giltuproq ishlatiladi.

Klinkerning kimyoviy tarkibi, massa boʻyicha % hisobida quyidagichadir:

SiO_2 -20...24; Al_2O_3 -4...7; Fe_2O_4 -2...6; CaO -62...68.

Ularni umumiy miqdori 95-97% boʻlishi kerak.

Ilgari aytilganida gidravlik bogʻlovchi moddalar ham havoda, ham suvda qotish xususiyatiga egadir. Bularga portlandsement va uning turlari, xamda gidravlik ohak kiradi. Bulardan tashqari shlaklar kullar, tabiiy togʻ jins va moddalari asosida olingan bir qancha gidravlik bogʻlovchi moddalar xam kiradi.

Bu bog`lovchi moddalar tarkibida kalsiy silikat, kalsiy alyuminat va kalsiy ferritlarni borligi, ularga gidravlik xossalari beradi.

Portlandsementning ishlatilishi.

Portlandsement qurilishda juda keng qo`llaniladi. Yer usti va ostida, suv ostida beton va temir-beton yig`ma konstruktsiyalar, shuningdek turli maqsadlarda va sharoitlarda ishlatiladigan monolit konstruktsiyalar qurishda portlandsementdan foydalaniladi. Portlandsementning shu qadar ko`p sohalarda ishlatilishiga sabab shuki, u juda qimmatli qurilishbop xossalarga ega, ya`ni nihoyatda mustaxkam va nisbatan tez o`sadi, shuningdek turli agressiv muxitlar ta`siriga chidamli. Uni ishlash uchun, nisbatan oz mablag` sarflanadi. Bu esa portlandsement ishlab chiqarishni yuksak darajada mexanizatsiyalashga imkon berdi.

Industrial qurilishning yig`ma beton va temir-beton konstruktsiyalari tobora ko`p ishlatilayotgani bilan xarakterlanadigan hozirgi ravnaqida portlandsementdan qimmatli bog`lovchini har tomonlama tejash birinchi darajadagi vazifa hisoblanadi.

Beton ishlayotganda portlandsementdan foydalanish qanchalik maqsadga muvofiq ekanligi talab qilinayotgan mustaxkamlikka, qotish sharoitlari va betonning ishlatilish xarakteriga bog`lik bo`ladi.

Qurilishbop qorishmalarda portlandsement ishlatish uchun (eng kup ishlatiladigan markalarida) odatda ohak, gidravlik yoki inert qo`shilma hamda organik plastiklashtirgichlar solinadi.

Yigma beton hamda temir-beton konstruktsiyalar ishlab chiqarish uchun qanday portlandsement tanlash talab qilinsa, printsiptal shunday talablar qo`yiladi.

Issiq-nam bilan ishlov beriladigan beton ishlab chiqarish uchun portlandsement tanlanayotganda ishlov sharoitlari klinkerning mineralogik tartibiga qarab belgilanadi.

Maxsus portlandsementlar

Maxsus portlandsementlar odatdagsidan yaqqolroq namoyon bo`ladigan yoki o`ziga xos ayrim xossalari bilan farq qiladi. Masalan, sulfatga chidamli portlandsement sulfatli suv ta`siriga juda chidamli bo`ladi, plastifiklashtirilgani nisbatan ancha plastik betonbop qorishma hosil qiladi, oqi nihoyatda oqligi bilan

ajralib turadi va h.k. Bu xil sementlar maxsus xossalariga yarasha alohida maqsadlarda ishlatiladi.

Maxsus portlandsementlarning turi ko`p. Ba`zilari (gidrofob va plastifiklashtirilgan, sulfatga chidamli, tez qotadigan, magnezial, yo`lbop, oq va rangli portlandsementlar) ko`rilishda juda keng ko`llaniladi.

Shuni nazarda tutish kerakki, maxsus sementlar muxim xossalaridan yaxshi foydalanish mumkin bo`lgan xollardagina ishlatiladi.

Plastifiklashtirilgan portlandsement.

Plastifiklashtirilgan portlandsement deb portlandsement klinkerni plastifiklashtiradigan qo`shilma bilan birgalikda juda mayda tuyishdan hosil bo`ladigan gidravlik bog`lovchi moddaga aytiladi. Plastifiklashtirilgan portlandsementning tishlashish muddatlarini keragicha o`zgartirib turish uchun tuyayotganda gips ko`shiladi. Gipsdan sement tarkibidagi sulfat kislota anhidridi (SO_3) ning 3% dan ortiq qo`shilmasligi kerak.

Plastifiklashtiradigan qo`shilma sifatida sulfat-spirt bardasi (s.s.b.) kontsentrati ishlatiladi. S.s.b. dan sement og`irligining (quruq moddaga hisoblanganda) 0,1- 0,25% miqdorida qo`shiladi.

Sementga sulfit-spirt bardasi quruq modda yoki kontsentrlangan suvli eritma holida qo`shilishi mumkin.

Oddiy portlandsementning maydaligi, qotayotganda hajman tekis o`zgarishi, tishlashish muddatlari va mustaxkamligi qanday bo`lsa, plastifiklashtirilgan portlandsementniki ham xuddi shunday bo`lishi lozim. Plastifiklashtirilgan portlandsement 300; 400; 500; 600 markalarda chiqariladi.

Plastifiklashtirilgan sement odatdagsidan asosan undan tayyorlangan betonbop qorishmaning nihoyatda yaxshi yoyiluvchan bo`lishi bilan farqqiladi.

Sulfit-spirt barda umuman plastifiklashtiruvchi ta`siri tufayli yaxshi mustaxkamlay oladi: sement xamir (beton) plastikligini oshirish, aralashma plastikligi (yaxshi joylanuvchanligi)ni o`zgartirmasdan solinadigan suv miqdorini

kamaytirishga imkon beradi, natijada sement toshning zichligi, binobarin mustaxkamligi ortadi.

Plastifiklashtiradigan qo`shilmalar ishlatish betonning boshqa bir qator texnik xossalari ham yaxshilaydi. Jumladan, sovuqqa chidamliligi ortadi, namlanuvchanligi kamayadi. Asosan ancha zich sementtosh hosil bo`lishi tufayli ana shunday bo`ladi. Bunga S/TS ning kamayishi yordam beradi.

Plastifiklashtirilgan portlandsement odatdagisi bilan bir qatorda yer usti va ostida hamda suvda, beton va temirbeton konstruktsiyalar ko`rishda ishlatiladi. Qurilishbop qarishma tayyorlanayotganda plastifiklash-tirilgan sementlar ishlatish uchun gil, ohak, shlaklar qushish kerak bo`ladi.

Plastifiklashtirilgan portlandsementlar yig`ma beton va temirbeton konstruktsiyalar ishlab chiqarishda ham qo`llanilishi mumkin.

Gidrofob portlandsement.

Bu gidravlik moddani portlandsement klinkerni gidrofoblovchi qo`shilma bilan birgalikda mayda tuyib tayyorlanadi.

Tishlashish muddatlarini keragicha o`zgartirish uchun tuyayotganda gips qo`shiladi. Gipsdan sement tarkibidagi sulfat kislota angidridi (SO_3) miqdorining 3% idan ortiq qo`shilmasligi lozim.

Gidrofoblaydigan qo`shilmalar sifatida sovunnaft (sement og`irligining 0,25% gacha miqdorida), asidol (0,1-0,12%) va olein kislota (0,1 % gacha) ishlatiladi. Ko`prok neft distillatlarini tozalayotganda hosil bo`ladigan ishkor chiqindilardan iborat sovunnaftdan foydalaniladi. Naften kislotalari sovunnaftning gidrofoblovchi qismi hisoblanadi. Sovunnaft quyuk suyuqlik holida hosil bo`ladi, tarkibida 50% gacha suv bo`ladi. Undan suvsiz asidol-texnik naften kislotalar olinadi. Ularni suvli sovunnaftga qaraganda tashish va saqlash qulayrok. Gidrofob portlandsementning asosiy xossalari odatdagi portlandsementnikiga o`xshashdir. Gidrofob portlandsement mustaxkamlik ko`rsatkichlari bo`yicha 300; 400; 500 va 600 markalarida chiqariladi.

Gidrofob portlandsement maxsus xossalari bilan ajralib turadi: sement poroshogi ancha kam gigroskopik bo`ladi, betonbop qarishma bir muncha plastik,

qurilishbop qarishmalari nihoyatda yaxshi yoyiluvchan, undan ishlangan beton sovuqqa juda chidamli.

Sement gigroskopik ligini, ya'ni uning havo namligini tortib olish qobiliyatini kamaytirish juda muhim texnik ahamiyatga ega. Sementning gigroskopikligi uzoq vaqt saqlaganda va kema va poroxodlarda tashilayotganda ayniqsa yomon ta'sir qiladi: sement aktivligi ancha kamayadi va qumoq-qumoq bo'lib qoladi. Hidrofobli sementda bunday kamchiliklar yuk, uzoq vaqt saqlanganda va suv transportida tashiganda ham o'z aktivligini yuqotmaydi va qatlamlanmaydi.

Portlandsementning gidrofoblanish mohiyati shundaki, sement zarralari yuzasida gidrofob pardalar hosil bo'ladi. Bu pardalar sement zarralarining klinker qismiga nam o'tishiga to'skinlik qiladi va sement zarralarining bir-biriga yopishib qolishiga yo'l qo'ymaydi. Bu holda pardalarning nam yuqtirmaslik (gidrofob) ta'siri faqat sementda namoyon bo'ladi; betonbop qarishma tayyorlanayotganda sement bilan to'ldirgichlarni qarish vaqtida gidrofob pardalar osongina ko'chib tushadi. Hidrofob sement odatdagi sement bilan birga ishlatiladi. Ammo asosan uning maxsus xossalari juda yaxshi foyda beradigan xollarda, chunonchi, tez-tez muzlab va erib turadigan sharoitlarda ishlatiladigan gidrotexnik inshootlar hamda konstruktsiyalar elementlarini ishlashda ko'p ishlatiladi.

Sulfatga chidamli portlandsement.

Bunday gidravlik bog'lovchi modda (sementni) sulfatli suvga nihoyatda chidamli qiladigan muayyan mineralogik tarkibdagi portlandsement klinkerini mayda tuyish natijasida hosil bo'ladi.

Sementning tishlashish muddatlarini keragicha o'zgartirib turish uchun tuyayotganda sementga SO_3 miqdorining 3% dan oshmaydigan qismicha gips qo'shishga yo'l qo'yiladi, suvga chidamliligini oshirish uchun 15% gacha gidravlik qo'shilmalar solinadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, odatdagi portlandsementning sulfatli suvda korroziyalanishiga asosiy sabab uch kalsiyli gidroalyuminatning suvda erigan gips bilan o'zaro ta'sir etishishidadir. Natijada kalsiy gidrosulfoalyuminati («sement batsilla») hosil bo'ladi. U sement tosh kovaklarida krestallanib, toshni buzib

yuborishga intiladi. Demak, klinkerda C_3A mineral yuk balsa, sement sulfat agressiyasiga bardosh bera oladi. Lekin klinkerda butunlay S_3A bulmasligi ham mumkin emas, chunki bu xolda, yuqorida aytilganidek, sementning qotishi nihoyatda sekinlashib ketadi. Shuning uchun ham sulfatga chidamli portlandsement klinkerida oz bo`lsada, lekin S_3A albatta bo`ladi. Ammo 5% dan oshmasligi lozim. Klinkerda S_3A dan ma'lum darajadagina bo`lganida gil-tuproq modul

Al_2O_3 / Fe_2O_3 miqdori kamida 0,7 bo`lishi lozim.

Sulfatga chidamli portlandsement ishlab chiqarish sxemasi odatdaginginidek bo`ladi. Faqat xom ashyoning ximiyaviy tarkibi va klinker mineralogik tarkibini tekshirib turishga nisbatan kuchliroq talablar qo`yiladi.

Sulfatga chidamli portlandsement 300; 400 va 500 markalarda ishlab chiqariladi.

Sulfatga chidamli portlandsement sulfatli suvlarga nihoyatda chidamli bo`lishi bilan birga sovukka juda yaxshi chidaydigan va dam namlanib, dam kurib turish sharoitlariga yaxshi bardosh bera oladigan beton ishlashga imkon tugdiradi. SHuning uchun ham u takror-takror namlanib-qurib yoki muzlab-erib turish vaqtida sulfatli suvlar ta'sirida bo`ladigan beton va temirbeton konstruktsiyalar ishlab chiqarishda qo`llanib kelinmoqda.

Beton nihoyatda sovuqqa va korroziyaga chidamli bo`lishi talab qilingan hollarda yigma beton va temirbeton konstruktsiyalar ishlab chiqarishda sulfatga chidamli portlansement ishlatiladi.

Oq va rangli portlandsementlar.

Oq portlandsement-bu tarkibida ozgina (0,3-0,45% gacha) temir oksidi bo`lgan oq klinkerni mayda tuyishdan hosil bo`ladigan gidravlik bog`lovchi modda.

Klinkerni tuyayotganda 15% gacha gidravlik yoki 10% gacha inert qo`shilmalar qo`shishga, shuningdek, tishlashish muddatlarini keragicha o`zgartirib turish uchun SO_3 ga hisoblaganda ko`pi bilan 3% gip solish ruxsat

etiladi. Gips va qo`shilma tuyilganidan keyin ana shu nav sement uchun belgilangan darajada oq bo`lishi kerak.

Portlandsement klinkeri minerallari tarkibida qanday oksid borligiga qarab har xil rangda bo`ladi. Masalan, kalsiy silikatlar oq, C_3S , chunonchi, C_2S dan oqroq. Ayniqsa uch kalsiy alyuminat oppoqligi bilan ajralib turadi. To`rt kalsiy alyumoferrit temir oksidlari tufayli qoraroq tusda. Shu sababli odatdagi portlandsement kulrang-yashil tusda bo`ladi. Demak, klinkerda bo`yovchi oksidlar, ayniksa Fe_2O_3 bo`lmasa, bunday sement oq rangli bo`ladi. SHunday qilib oq portlandsement ishlab chiqarishdagi asosiy vazifa, tarkibida temir oksidi bo`lmagan yoki juda oz miqdorda bo`lgan xom ashyoni ishlatishdan iboratdir.

Biroq ma`lum ximiyaviy tarkibli xom ashyoni ishlatishning o`zi nihoyatda oq portlandsement ishlash uchun kifoya qilmaydi. Bo`yovchi oksidlar sementga yoqilg`i kulidan yoki tuyayotganda sharlardan yo tegirmonning po`lat qoplamidan o`tishi mumkin. Shuning uchun klinkerni kuydirayotganda kulsiz suyuq va gazzimon yoqilg`i ishlatiladi. Klinker kuydirib bo`lgan zaxotiy oq «oqlanadi». Buning uchun qaytarish muxit ta`siriga uchratiladi. Shunda klinker tarkibida bo`lgan Fe_2O_3 ko`rinishidagi temir oksidi kamroq bo`yaydigan Fe_3O_4 ga aylanadi va sement yanada oqaradi.

Xom ashyo aralashmasi va oq sement klinkeri maxsus qattiq, kam yeyiladigan po`lat yoki chinni plitalar qoplangan shar tegirmonlarda maydalanadi.

Oq portlandsement klinkerini ishlab chiqarish uchun zarur xom ashyo tariqasida nihoyatda oppoq materiallar ishlatiladi: sof ohaktosh yoki bor va kaolinlar (ko`pincha kaolin sanoati chiqindilaridan foydalaniladi).

Oq portlandsement suvda qorgandan keyin kamida 30 minutdan so`ng tishlasha boshlashi, kechi bilan 12 soatdan keyin tishlashib bo`lishi lozim (iste`molchi bilan kelishilsa, tishlashish muddatlari boshqacha belgilanishi ham mumkin).

Sementning tuyilish maydaligi 021 nomerli elakdan batamom elanib utishiga va 009 nomerli elakda ko`pi bilan 15% qoldiq qolishiga qarab aniqlanadi.

Siqilishdagi mustaxkamlik chegarasi bo'yicha oq portlandsement 250; 300 va 400 markalarda ishlab chiqariladi.

Rangli portlandsement-deb oq portlandsement klinkeri va gidravlik qo'shilmaning sementni ma'lum rangga kirituvchi mineral pigment bilan birga maydalanishidan hosil bo'ladigan gidravlik moddaga aytiladi.

Klinker va pigmentni aloxida-aloxida tuysa ham bo'ladi. So'ngra ular yaxshilab aralastiriladi. Biroq bunday rangli sement birga tuyib ishlangan sementdan sifatsizroq bo'ladi. Birga tuyilganda aralashma ancha tekis aralashadi.

Pigmentlar ishqor, havo va yorug' ta'siriga chidamli bo'lishi lozim. Oxra (sariq pigment), xrom oksidi (yashil pigment), mumiyo (qizil pigment), temir surig'i (jigar rang pigment), korakuya (kora pigment) ning ana shunday xossalari bor. Suvda va organik eritmalarda erimaydigan mayda tuyilgan rangli poroshoklar pigmentlar deb ataladi.

Sementni qanchalik to'q-och bo'yash kerakligi va pigmentning bo'yash qobiliyatiga qarab sementda 20-25% gacha bo'yoq bo'lishi mumkin.

Oq portlandsementga qanday texnologik talablar qo'yilsa, rangli portlandsementga ham shunday talablar qo'yiladi.

Oq va rangli portlandsementlar tashqi va ichki me'morchilik-bezash, haykaltaroshlik, bo'yash ishlarida qo'llaniladi.

Oq va rangli sementlar yig'ma beton buyumlar ishlab chiqarishda ya'ni:

- binolarning tashqarisini qoplash (qoplama plitalar va arxitektura detallari)da;
- yirik devor bloklar va panellarga qoplashda;
- xonalarning ichiga qoplanadigan qoplama plitalar ishlashda;
- rangli qorishmalarni tayyorlash va boshqa sohalarda keng ishlatiladi.

Ana shu sementlarda foydalangandan qoplamaning tannarxi shu maqsadda ishlatiladigan boshka materiallar (keramik, tabiiy toshlar) tannarxiga qaraganda kamayadi. Biroq ko'pgacha chidashi jixatidan bahzan keramik va tosh qoplamalardek bo'la olmaydi. SHu sababli bir qator xollarda bino oldini bezashda ko'p beton

ishlatib bo`lmaydi. Sement og`irligining 0,1-0,15 % miqdorida gidrofob qo`shilmalari ishlatilsa bir muncha ko`pga chidaydigan bo`ladi.

Oq va rangli sementlar, albatta, idishlarda tashilishi lozim. Saqlayotganda ifloslanishiga yo`l qo`ymaslik lozim.

6- rasm



3 BOB. BEZAK MATERIALLARI TAYYORLASH JARAYONLARI

3.1 Bezak materialлари tayyorlashda ishlatiladigan to'ldiruvchi moddalar

Marmar (lot. marmor, yun. marmaros — yaltiroq tosh so'zidan) — kristalli tog' jinsi. Ohaktosh yoki dolomitning to'la qayta kristallanishidan hosil bo'lgan. Mineral donachalarining o'lchamiga qarab (0,05 — 2,25 mm) mayda, o'rtacha va yirik donachali marmarlar farq qilinadi. Mayda donachali marmar sifatli hisoblanadi, chunki unda g'ovak va darzlik kam. Marmarning tarkibi, asosan, kalsit (CaCO_3)dan iborat, ozroq MgO , MnO , Al_2O_3 va Al bo'ladi. Tarkibida MgO ko'p bo'lgan turi dolomitli marmar deb ataladi. Marmarga boshqa minerallar (kvars, xalsedon, limonit, xlorit, gematit, pirit va boshqalar), shuningdek, organik birikmalarning ko'p qo'shilganligi uning xossalarini (mustahkamligi, rangi, zichligi va h.k.) keng diapazonda o'zgarishiga sabab bo'ladi. Marmarga kvars qo'shilgan bo'lsa uning mustahkamligi ortadi, binobarin ishlov berish ham qiyinlashadi. Qo'shimchalar marmarning sifatini yo oshiradi yoki kamaytiradi. Strukturasi bir xil bo'lgan marmarlar sovuqqa chidamli bo'ladi. Qurilish amaliyotida marmar deb sayqal berish mumkin bo'lgan o'rtacha qattqlikdagi metamorfik jinsga aytiladi; bular — marmar, marmarlashgan ohaktosh, zich dolomit, ofikalsit, karbonatli brekchiya va karbonatli konglomeratlar. Marmarning rangi (qizil, pushti, sarg'ish, qo'ng'ir, yashil, jigarrang, qora, kulrang, oq) turli xil kimyoviy va mexanik aralashmalarga bog'liq. Marmarning fizik xossalari: zichligi 1900-2800 kg/m^3 , siqishga mustahkamlik chegarasi 10,0— 25,0 mPa, sinishga chidamlilik chegarasi 10—30 MPa, suv shimuvchanligi 0,15—0,50%, g'ovakligi 1%gacha. Qattqligi 3—4. Marmarning bir tekis oq yoki qora ranglisi juda qadimdan haykaltaroshlikda ishlatilib kelinadi. O'zbekistonning qadimiy Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon va boshqa shaharlaridagi me'moriy obidalarida marmarning katta harsang toshlaridan tortib, to mayda marmar oniksi plastinkalarigacha ishlatilgan. Toshkent shahridagi ko'pgina teatr, ma'muriy binolar va metropoliten stansiyalarida O'zbekiston marmari ishlatilgan. Marmar

karyerlarda, kam hollarda yer ostidan qazib olinadi. Yaxlit katta bo'laklar tosh qirquvchi mashinalar, maxsus arralar yordamida qirqib olinadi. Marmar konlari O'zbekiston (G'ozg'on, Ko'kpatos, Omonqo'ton, Og'aliq va boshqalar), Kozog'iston, RF (Kareliya, Ural, Sibir), Armaniston, Italiya, Gretsiya, Kuba, Fransiya, Norvegiya, AQSH va boshqa mamlakatlarda mavjud. O'zbekistonda sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan marmar konlari: G'ozg'on (yiliga 12 ming m³), Nurota (0,8 ming m³), Zarband (7 ming m³), Tomchiota (1,4 ming m³), Ko'chat (2 ming m³), Makrid (0,4 ming m³), Qaxralisoy (Qoraqalpog'istonda) (1 ming m³) va boshqa marmarning sanoat zaxiralari 50 mln. m³dan ziyod (2000). Marmar qazib oluvchi va ishlov beruvchi yirik korxonalar: "O'zsanoatqurilishmateriallari" AJ, "Qizilqumnodirmetalloltin" va "O'zavtoyo'l" davlat aksiyadorlik kompaniyalari.

Ohaktoshlar — karbonatli cho'kindi tog' jinslari. Tarkibi 50% dan ortiq kalsitdan yoki organizmlarning skeleti qoldiqlaridan, ba'zan aragonit minerali (CaCO³)dan iborat. Ko'pincha tarkibida autigen, diagenetik va epigenetik minerallar, chaqiq (terrigen va karbonat) zarralar aralashmasi uchraydi. Ohaktoshning tarkibida 4-17% gacha MgO bo'lsa, dolomitli ohaktosh; 6-21% SiO₂+P₂O₅, -mergelli ohaktosh; kvars, opal va xalsedon qo'shilsa-qumtoshli va kremniylashgan ohaktosh deb yuritiladi. Strukturasida kristalli, organogen-chaqiqli, chaqiqli-kristalli va sizib to'plangan (travertin, ohakli tuf) turlari farq qilinadi. Rangi oqish, sarg'ish, bo'zrang. Ko'pincha ohaktosh ichida chig'anoqlar ham bo'ladi. Hosil bo'lishiga ko'ra, organogen, xemogen yoki kimyoviy, chaqiq bo'ladi. Tarkibidagi jins hosil qiluvchi organizmlarning ko'pligiga ko'ra, organogen ohaktosh, foraminiferali, marjonli, suvo'tli va boshqa; xemogen va chaqiqli (zarralar)ning kattaligiga qarab bir necha xilga bo'linadi. Metamorfizm natijasida ohaktosh marmarga aylanadi. Ohaktosh eng ko'p tarqalgan cho'kindi tog' jinslaridan biri, Yerning turli relyef shakllarida ishtirok etadi. Ohaktosh barcha yoshdagi (tokembriydan to'rtlamchi davrgacha) yotqiziqlarda uchraydi. Ohaktoshning fizik-mexanik xossalari ularning strukturasi va tuzilishiga bog'liq

bo'lib, juda keng chegarada o'zgaradi, massa, hajmiy og'irligi 800 kg/m^3 dan (chig'anoqtoshlar, travertin) 2800 kg/m^3 gacha (kristalli strukturali ohaktosh). Chig'anoq-toshlar va g'ovakli ohaktosh nisbatan oson kesiladi hamda yoniladi, kristalli ohaktosh esa, yaxshi silliqiladi. Ohaktosh sanoatda, qishloq xo'jaligi va qurilishda keng qo'llaniladi. Qora metallurgiyada rudaning erishini oshirish va shlak hosil qilish uchun qo'shiladigan modda (flyus) sifatida; ohak va sement ishlab chiqarishda xom ashyo; soda, mineral o'g'itlar, shisha, qog'oz ishlab chiqarishda, neft mahsulotlarini tozalash va boshqa jarayonlarda qo'shimcha modda sifatida ishlatiladi. Ohaktosh muhim qurilish materiallari guruhini tashkil qiladi, ulardan qoplovchi va bezak toshlar, haykaltaroshlik va me'morlikda ishlatiladigan toshlar va h.k. tayyorlanadi. O'zbekistonda ko'plab ohaktosh qazib olinadigan konlar, yirik ishlab chiqarish birlashma korxonalari "O'zsanoatqurilishmateriallari", O'zavtoyo'l, Navoiy va Olmaliq kon-metallurgiya kombinatlari va boshqalar tomonidan ishlatilmoqda.

Kvars minerali va uni tabiatda tarqalishi

Kristall modda haqida tushuncha. Kvars so'zi grekcha, „kristallos“ - so'zidan olingan bo'lib “sovuqda qotish” degan manoni bildiradi. O'rta asrlarda tog' xrustali (kvars)ni muzga o'xshaganligi uchun kristall deb nomlangan. XVII-asrdan boshlab esa, tabiatda topilgan va laboratoriyada olingan ko'p qirrali shaklga ega bo'lgan jism (modda)lar kristallar deb atala boshlandi[1].

Kristallarni tabiatda tarqalishini akademik A.E.Fersman shunday yozgan edi. Kristallarni o'rganuvchilar oldida butun bir yangi dunyo ochilmoqda va asta-sekin shu narsa aniqlanmoqdaki, qat'iy qonunlar asosida tuzilgan modda butun dunyoni to'ldirmoqda haqiqadan ham, kristallar qattiq jismlarni yashash shaklidir. Bizni o'rab turgan narsalar hammasi turli xil kristallardan tashkil topgan. (uylar, sanoat, qurilmalar, uchish qurilmalari va raketalar, tog' jinslari, minerallar va h.k.) Litosfera (yerning tosh qobig'i)ning 95% ga yaqinini tashkil etgan qattiq madanlar ham kristall tuzilishga ega. Tuz, shakar, muz, ko'pgina dorilar, kauchuk, qurum, jun, suyak va hokazolar ham kristallardan tashkil topgan [1].

Kristallar tabiatda ko'p qirrali shaklga ega bo'ladi. Atom, ion va molekular kabi elementar zarrachalar fazoda ma'lum qonuniyatlar bo'yicha joylashadi. Kristall ko'p qirrali bo'lmasligi ham mumkin, ammo u har qanday kristall parchasi singari, yaxshi qirralarga ega bo'lgan, kristallga xos bo'lgan qator makroskopik, fizik, xossalari ega bo'ladi. Alohida butun kristallar-mono kristallar deyiladi. Turli o'lchamli, har-xil shaklli mayda betartib joylashgan mayda kristallar-polikristallar deyiladi [2].

Qattiq jismlar kristall holatda termodinamik barqaror bo'ladi. Kristallarda ularni tashkil etgan zarralar fazoda tartibli va simmetrik joylashadi. Zarrachalarni joylashish qonuniyati, ularning tabiati, energetik spektri, bog' mustahkamligi kabilar moddani fizik hossalari belgilaydi. Kristallarning strukturasi deganda zarrachalarning fazoda joylashishi, ularning simmetriyasi tushuniladi [2].

3.2. To'ldiruvchilarni bo'yashda ishlatiladigan jihozlar.

To'ldiruvchilarni bo'yashda turli hildagi jihozlardan foydalaniladi. Har bir laboratoriyada ishlatilgani kabi bizning laboratoriyada ham asboblardan va jihozlardan foydalanildi. Bularni turlari juda ko'p; asosan to'ldiruvchilarni bo'yashda bizga turli xildagi upa bo'yoqlar (turli rangdagi qizil, jigarrang, qora, och sariq ko'k va hakoza), shpatel, tarozi, turli xildagi va hajmdagi baraban aralashtirgichlar, tigellar, o'rtacha kattalikdagi stakanlar, petri chashkalari, quritish uchun plita, aralashtirgichlar (turli hildagi va o'lchamdagi), distillangan suv, bog'lovchilar (suyuq shisha, poliakril smolasi va bq.), travertin (har hil o'lchamdagi), kvarts (turli o'lchamdagi).

3.3. TABIIY QUMNI YUVISH VA YUVILGAN QUMNI FRAKSIYALARGA AJRATISH

Tabiiy qum sifatida daryo qumi tanlab olindi va 1 kg olib ularni ustiga 1.5 l oddiy suv bilan 4 l idishda yuvildi 5 marta 6 l suv bilan toki loyqa chiqmagunga qadar yuvildi. 2 l distillangan suv bilan ham yuvildi. Yuvish jarayoni tugagandan so'ng qumni xona haroratida 36 soatga qoldirildi. Shu tarzda quritib olindi.

Termostatda 100⁰ C temperaturada 2 soat quritib xona haroratiga keltirib tarozida tortildi 0,75 kg chiqdi shu jarayonni doimiy massaga kelguncha 3 marta qaytarildi 2-marta takrorlanganida 1.74 kg 3-takrorlanagnida 0,74 kg chiqadi va u doimiy massaga keladi. Demak $1-0,74=0.26\text{kg}$ qo'shimcha mahsulotlar aniqlandi.

Yuvib quritilgan tabiiy qumlarni zarrachasining o'lchamiga ko'ra fraksiyalarga bo'lindi. Bunda 0.16mm o'lchamli elakda elab olindi, elakdan o'tgan fraksiyani birinchi nomerli fraksiya deb belgilandi uni o'lchamini 0,16 o'lchamlidan kichkina deb yozib qo'yildi ($\alpha_1 < 0.16$). Elakdan o'tmay qolgan fraksiyani o'lchamlari 0.25mm o'lchamli elakdan o'tkazildi, va uni α_2 deb belgilab olindi ($0.16 < \alpha_2 < 0.25$). 0.25mm o'lchamli elakdan o'tmay qolganini α_3 deb belgilandi. Shu tariqa kravslarni 3 ta fraksiyalarga bo'lib olindi.

3.4. Fraksilarga ajratilgan qumlarni bo'yash.

Yuqorida aytib o'tilgan ajratilgan fraksiyalarni bo'yash uchun quyidagi pigmentlar va bog'lovchilardan foydalanildi. Qizil, jigarrang, to'q-jigarrang kabi sintetik bo'yoqlardan foydalanildi. Bog'lovchilardan suyuq shisha, poliakril smolasi, poliakrilamid kabi bog'lovchilar ishlatildi.

5- jadval

| Fraksiyalar | | |
|-------------|--------|--------|
| 1 | 2 | 3 |
| 25% | 40% | 35% |
| 0,18kg | 0,29kg | 0,26kg |

1-tajriba

O'rtacha hajmdagi stakanga 0,5 gr bog'lovchi olib unga 0,3 gr pigment qo'shildi va shpatel yordamida toki pigment bog'lovchining hamma tomoniga bir xil tarqarguniga 1 jinsli bo'lguniga qadar uni yaxshilab aralashtirildi. 1-jinsli bo'lgan aralashmaga 10ml distillangan suv qo'shib suyultirildi toki bir xildagi eritma hosil bo'lgunga qadar. Eritma hosil bo'lgandan so'ng α_1 fraksiya qumidan 40 gr tortildi, qumni ustiga 5ml quyib yaxshilab qunning hamma joyiga bir tekis taqsimlanguncha shpatel yordamida aralashtirildi. Va undan so'ng karton ustiga

0.5 mm qalinlikda yoyildi. Undan so'ng 20 minut quyosh nurida quritildi. Mana shu jarayonlar α_2 va α_3 fraksiyalarida ham huddi shunday takrorlandi va ularni ham 0.5mm qalinlikda karton qog'ozga yoyib chiqildi. Ularni ham 20 minut quritildi. α_1 →fraksiyali qumni bo'yash oson kechdi uni rangi qizil tiniq chiqdi.

α_2 →fraksiyali qumni bo'yalganda avval bo'yalgan qumga qaraganda salgina och qizilrang namoyon bo'ldi.

α_3 → fraksiyali qumni bo'yalganda ham shu rang namoyon bo'ldi lekin avvalgi qumlardek rangi to'q bo'lmadi.

2 –tajriba

Shu jarayonni pigment bilan hosil qilgan eritmaga yana 70ml distillangan suv quyib uni konsentratsiyasi kamaytirildi va hajmini 80 ml ga ko'tarildi. Ana shundan so'ng α_1 fraksiyani olib yana yuqoridagi jarayon suyultirilgan pigment bilan takrorlandi. Bu tajribadan 1-tajribada olingan natija kuzatilmadi sababi pigment konsentratsiyasi ozligi edi. Bu tajribada α_1 fraksiyali qumning rangi avvalgi tajribada olingan α_1 fraksiyali qumdan rangi ancha farq qilar edi(ochiq rang hosil bo'lgan edi). Huddi shu tajribani α_2 va α_3 fraksiyali qumlarda ham takrorlandi. Ularda ham rang intensivligi avvalgi tajribalarnikidan ancha past bo'ldi.

Fraksiyalarning b'lovchi va pigment miqdoriga bo'liqligi
6- jadval

| Fraksiyalar | Bog'lovchi miqdori | Pigment massasi | Materialning Rangi |
|-------------|--------------------|-----------------|--------------------|
| α_1 | 0,5gr | 0,3 | To'q qizil |
| α_2 | 0,5gr | 0,3 | Qizg'ish |
| α_3 | 0,5gr | 0,3 | Och qizil |

3-tajriba

Keyingi tajribada pigment sifatida jigarrang sun'iy pigment olindi. Bunda ham poliakril smola bog'lovchidan foydalanildi va eritmani yuqorida bajarganidek tayyorlab olindi. Shundan so'ng α_1 fraksiyali qum bilan ish boshlandi. Bu tajribada ham tanlab olingan bog'lovchi bilan tanlab olingan pigmentni bir jinsli pasta hosil bo'lgunga qadar yaxshilab ishlov berildi va 10 ml distillangan suv quyib suyultirib

olindi. Ana shundan so'ng kerakli asboblarni tayyorlab olib, 40 gr α_1 fraksiyali qumdan tortib olindi va 5 ml pigment eritmasidan quyib rang qumning barcha tomoniga teng taqsimlanmaguniga qadar yaxshilab aralashtirildi (shpatel yordamida). Avvalgi qumlarni quritilgani singari bularni ham karton qog'ozga 0.5mm qalinlikda yoyib quyosh nurida 20 minut qoldirildi va quritildi.

4-tajriba

Yuqorida aytib o'tilgan 2-tajribadagi jarayonni pigmentli eritmasini suyultirib ham bajarib ko'rildi, va na'muna quritildi. Rang intensivligi sezilarli darajada farq qildi. Huddi shu tajribalarni α_2 va α_3 fraksiyali qumlarda ham takrorlandi. Ularda ham rang intensivligi avvalgi tajribalarnikidan ancha past bo'ldi.

7- jadval

| Fraksiyalar | Bog'lovchi miqdori | Pigment massasi | Materialning Rangi |
|-------------|--------------------|-----------------|--------------------|
| α_1 | 0,5gr | 0,3gr | Jigarrang |
| α_2 | 0,5gr | 0,3gr | Jigarrang |
| α_3 | 0,5gr | 0,3gr | Och jigarrang |

5-tajriba

Navbatdagi tajribada qora rangga yaqin bo'lgan to'q-jigarrang rang tanlab olinadi. Bu tajribani ham huddi yuqoridagi tartibda ko'rsatilganidek amalga oshiriladi. α_1 α_2 α_3 fraksiyalar tortib olinadi. Ushbu tajribada ham rang intensivligi 3 xil fraksiyada 3 xil rangni namoyon qiladi.

6-tajriba

Navbatdagi tajriba qumda emas travertinda amalga oshirildi. Buning uchun qizil pigment va bog'lovchi poliakril smolasi tanlab olindi. Travertinni ham zarrachalar o'lchamiga qarab 3 xil fraksiyaga ajratiladi. Bu tajribada α_2 fraksiyali travertindan foydalaniladi. Pigmentni bog'lovchi bilan yuqoridagi tajribalarda ko'rsatilgandek pasta hosil qilib eritmasi tayyorlanadi va yuvib tozalagan 40gr α_2 fraksiyali travertinga 6 ml quyib rang travertinni hamma qismiga birdek taqsimlangunga qadar yaxshilab aralashtiriladi. Jarayon tugagach esa qumni quritilgani singari travertinni ham karton ustiga 0,5mm yupqa qilib yoyib chiqiladi va 20 minut oftobda quritiladi. Natijalar qayd qilib boriladi.

XULOSA

1. Har bir olingan fraksiyaning alohida bo'yalishini natijasida olingan ranglarning intensivligi o'ziga xos yuqori bo'lib undagi rangning barqarorligi tajriba natijalaridan ma'lum bo'ldiku α_1 fraksiyadagi qumlarining rangi yuqori va to'q bo'ldi va barqarorligi kam bo'ldi. Rangning barqarorligiga sabab qum zarrachalarining o'lchami kichik yuzasi esa katta ekanligi bo'lib ko'rindi.

2. O'rtacha disperslikka ega bo'lgan α_2 fraksiyadagi olingan ma'lumotlarga ko'ra rangning intensivligi o'rta darajada bo'lib vaqtga chidamliligi barqarorroq tashqi muhitga chidamliligi bir oz kamaydi α_3 fraksiyada esa zarrachalarning disperslik darajasi yuqori bo'yalish yuzasi kichik bo'lganligini hisobga olgan holda rangning barqarorligi yuqori intensivligi kam bo'ldi.

3. Birinchi tajriba ma'lumotlariga ko'ra uchala fraksiyada ham natijalar ma'lum bir tomondan ustun bo'ldi. Bundan optimal tarkibni o'rganish uchun qilingan tajribalardan uchala fraksiyadan ma'lum bir nisbatlarda olib bo'yalganda rangning intensivligi bo'yoqning barqarorligi singdiruvchanligi qurish darajasiga ega bo'lgan ma'lumotlarni olish bu 3:3:4 nisbatda bo'lganda talab shartlarini qondiradigan darajada nisbat aniqlandi.

4. Qilingan amaliy tajribalar adabiyotlar sharxida o'rganilgan ma'lumotlar asosida shu narsa ma'lum bo'ldiki bog'lovchi moddalarning bajargan vazifasini qo'shimcha ravishda aralashmada α_1 fraksiya ma'lum darajada bog'lovchilik vazifasini qo'shganligi rangning intensivligini oshirganligini ko'rish mumkin bo'lsa, disperslik darajasi yuqori bo'lgan α_3 fraksiya esa barqarorlikni ta'minlashga o'z hissasini qo'shdi deb hisoblanadi.

5. Bog'lash uchun ishlatiladigan bo'yoq va poliakrilonitril chiqindisi miqdorini bir necha xil tarjima ma'lumotlarini o'rganish natijasiga ko'ra bog'lovchining miqdori qum massasiga nisbatan 30:2 nisbat bo'lganda rangning miqdori esa 30:0,5 bo'lganda eng optimal manzarani namoyon qildi. Bu esa 1-,2-,3-va 4-tajribalardan olingan ma'lumotlarni solishtirish natijasida hamda bo'yalgan na'munalarni quyosh nurida vaqt ta'sirida o'rganish natijasida aniqlandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.

1. A.A. Ismatov, „silikat va qiyin eriydigan kometall materialar texnologiyasi” Fan va texnologiya nashriyoti 2006.
2. A.T. Betextin „mineralogiya kursi” T., „O'qituvchi» nashriyoti 1969. B. 291-303
3. Н.М. Бобкова, Е.М. Дятлова, Т.С. Кумицкая, „Общая технология силикатов «вишняя школа 1987. С. 288
4. А.А. Потекко, „Общая технология силикатов” киев 1983. С.408
5. А.Г Мелеченко, В.Т Сахаров, „технология силикатов” москва 1962. С.360
6. Г. И. Ключовские, А.А Майюлов, „Лабораторные практикум по общей технология силикатов» Москва 1975. С.263
7. Химическая технология, „Рудолфа Вачнера”, „Сечинская обработка «Ferd Fisher Sakit- петербург издания К.Л.Рикера 1902. С.461
8. А.Г, „Касаткин основные процессы и аппараты, химическая технология силикатов» Москва 1971. С. 239-244.
9. Н.С. Бектургалов, Д.К. Турыбеков, Н.К. Tusupbayev, А.А. Мухаков, М.Б. Бармашинова, А.Б. Смушкина, „Р.Г.П. сентор наук земли, Металлургия обогащенные” С.361
10. N. A. Parpiyev. A.G. Muftaqov. X. R. Raximov, „Anorganik kimyo” T. O'zbekiston nashriyoti. 2003. B. 225.
11. Ойовы турин и практика переменных флотаценных реагентов. Под редакцией Митрофанова, С.И.И.Дуденкова 1967. С. 423
М. Недра 1969.
12. В.П. Шилаев, „основные обогащенные” полезных ископаемых-м, „Недра” 1969.
13. В. А. Гелембоцки, В.И. Клаесен, „флотаценных методов обогащенные”-м, „Недра”-1981. С.263.

14. Мешерянов Н. Ф., флотатсенные маншние-М 1972. С. 263.
15. Гумбоцки В. А. Клфссен. В.И. Флотация. 1973. С.251.
16. Справучник кообогашеннюю руд. М 1974. С.745.
17. В. И. Клфссен Л. А. Бфриские. обогашенные полезних искораенних (угляя руд цведних металлов) С.631.
18. Kvarsli qum bo'yicha davlat standartlari, „Kimyoviy texnologiya” 1980-yil Muhlonov.М. В. 636
„Kimyo texnologiya” А. Kattayev. 2008. Tosh DU. В.473.
19. Сборник задач по „химическая технология» Москува 1982. И. И. Беляева. А.С. Семенов. С.450.
20. Общая химическая технология, „вишяя щкола” 1977. С.360.
21. Практикум по химическая технология. Москува 1969. С.263.
22. А. Година, А. Тагарта флотця. С. Ш. А. 1987. С.363.
23. Позин. М. Е. Техналогия минеральных удобрених. 1974. С.467.
24. Руоводетво к практическим занятиям по технология неоргатичких вишество. М. Е. Позин. 1980. С.524
25. Ринян. В.Р., „Техналогия полчроводного кремная” Москва 1969. С.394. А.М. Прхоров, „физической”
26. „Эрциколонеэиской словарь” Москва 1983. С.953.
27. Алдров С.Е. Зверевич, „Дреблешя измелчешя” и „грохочеше полезних искораемних” Изд., „Недра” 1966. С.460.
28. Спеденко П. М., „Измелчеше в химическая промитленности” Изд., „химия” 1968. С.483.
29. „Kimyotexnologiya” А. Kattayev. 2008-yil. Tosh DU. В.473.
30. Судаков. Б.Н. Рооков Е.Ф., „Протцнни и апарати и уракових производествь, М. Машинностроенные 1969. С.389.

Internet saytlari:

- ↑ <http://www.etymonline.com/index.php?term=quartz> etymonline.com
- http://www.kvarts.ru/comp_20.htm.
- ↑ http://www.krugosvet.ru/enc/Earth_sciences/geologiya/KVARTS.html